

**BANDLIK TUSHUNCHASI VA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA UNING  
TRANSFORMATSIYASI**

**Sharipova Nargiza Baxtiyor qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Mehnat huquqi” yo‘nalishi magistratura bosqichi talabasi.

**El.pochta:** [sharipovanargiza983@gmail.com](mailto:sharipovanargiza983@gmail.com)

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.15615158>**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bandlik tushunchasi va shakllari, raqamlashtirish jarayonlarining aholi bandligi sohasiga ko‘rsatayotgan ijobiy hamda salbiy ta’sirlari, mazkur jarayonlar natijasida yuzaga kelayotgan xodimlarning ijtimoiy himoyasi bilan bog‘liq muammolar to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, maqolada mazkur sohada yuzaga kelayotgan muammolar yuzasidan amaliy misollar hamda ushbu sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar tahlili keltirib o‘tiladi.

**Kalit so‘zlar:** bandlik, virtual bandlik, ijtimoiy himoya, raqamlashtirish, internet, onlayn platformalar.

Aholi bandligini ta’minlash masalasi barcha davrlarda ham mamlakatimizdagi eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Mamlakatimizda har yili aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirib kelinmoqda, shuningdek bo‘sh va kvotalanadigan ish o‘rinlariga ishga joylashtirish mexanizmlari takomillashtirilmoqda, o‘zini-o‘zi band qilishning samarali shakllarini rivojlantirish borasida ko‘plab chora tadbirlar olib borilmoqda. O‘z o‘rnida, aholining ishchanlik faolligini va tadbirkorlik tashabbuslarini rag‘batlantirishga, aholining ijtimoiy zaif qatlamlari bandligini ta’minlashga, aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati, sifati va tezkorligini oshirishga qaratilgan bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda [1].

So‘nggi vaqtlarda mazkur masalada aholi va tadbirkorlarga, shuningdek aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifasi vakillariga ko‘plab imtiyoz va preferensiyalar, subsidiya hamda grantlar taqdim etish bo‘yicha normalar qabul qilindi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish to‘g‘risida” gi PF-17-son Farmonida 2025-yil 1-apreldan boshlab Kambag‘al oilalar reestriga kiritilgan oilalar uchun “Ijtimoiy daftarlar” jamg‘armalari orqali qo‘llab-quvvatlashning quyidagi yangi instrumentlari joriy etilishi, mazkur doirada kamida 3 nafar xotin-qizlar, yoshlar va aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining bandligi

Iyun, 2025-Yil

hamda ijtimoiy faolligini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish uchun tegishincha "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" va "Saxovat va ko'mak" jamg'armalari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining 60 baravarigacha grantlar ajratish belgilangan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xotin-qizlarning pillachilik sohasidagi bandligini bosqichma-bosqich ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi qaroriga asosan, xotin-qizlarni pillachilik sohasida qisqa muddatli o'quv kurslarida o'qitish va ularning sohada bandligini bosqichma-bosqich ta'minlash tizimini tashkil etish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlangan.

O'z navbatida "bandlik" tushunchasining mohiyatiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi "Aholi bandligi to'g'risida" gi qonunining 4-moddasiga asosan, bandlik deganda fuqarolarning qonunchilikda taqiqlanmagan, o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantirish bilan bog'liq bo'lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyat tushuniladi.

Qonunga asosan, mehnat shartnomasi bo'yicha haq evaziga to'liq yoki to'liqsiz ish vaqti shartlari asosida ishlayotgan yoxud kasanachilik bilan shug'ullanayotgan, shuningdek haq to'lanadigan boshqa ishga, shu jumladan vaqtinchalik ishga ega bo'lgan fuqarolar, kasalligi, ta'tilda bo'lishi, kasbga tayyorlashda, qayta tayyorlashda yoki malaka oshirishda ekanligi, ishlab chiqarish to'xtatib turilganligi munosabati bilan, shuningdek qonunchilikka muvofiq vaqtincha ish joyida bo'lmagan xodimning ish o'rni saqlanib qoladigan boshqa hollarda vaqtincha ish joyida bo'lmagan fuqarolar, haq to'lanadigan lavozimga saylangan yoki tayinlangan fuqarolar, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiyasi, Davlat xavfsizlik xizmati tizimida, bojxona organlarida va boshqa harbiy xizmat nazarda tutilgan idoralarda xizmatni o'tayotgan fuqarolar, o'zini ish bilan mustaqil ravishda ta'minlayotgan fuqarolar, shu jumladan hunarmandlar, oilaviy korxonalarning ishtirokchilari, dehqon xo'jaliklarining, ishlab chiqarish kooperativlarining a'zolari, fermer xo'jaliklarining a'zolari, o'zini o'zi band qilgan shaxslar sifatida ro'yxatga olingan shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) bo'yicha, shu jumladan fuqaroviy-huquqiy tisdagi shartnomalar bo'yicha shaxsiy mehnati bilan ishtirok etishga asoslangan faoliyatni amalga oshiruvchi boshqa shaxslar, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolar, o'z faoliyatini qonunchilikka muvofiq amalga oshirayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarida, shu jumladan diniy tashkilotlarda ishlayotgan fuqarolar band deb hisoblanadi.

Raqamlashtirish hamda Internet so'nggi o'n-o'n besh yillar davomida biznes, iqtisodiyot va jamiyatda katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi.

Iyun, 2025-Yil

Hozirgi vaqtda millionlab insonlar deyarli har kuni soatlab vaqtini onlayn tarzda internet bilan bog'liq holatda o'tkazadi. So'nggi vaqtlarda ko'plab sohalarning raqamlashtirilishi, sohaga sun'iy intellekt texnologiyalarining kirib kelishi aholi bandligi sohasidagi ijtimoiy munosabatlarning xususiyatlari o'zgarishiga olib kelmoqda. Xususan, aholi bandligi sohasiga ham raqamlashtirish o'z ta'sirini o'tkazdi. Buning natijasida "virtual bandlik" tushunchasi paydo bo'ldi.

Ya'ni bevosita ish joyidan turib emas, masofadan turib ishlash, turli platformalar orqali onlayn rejimda ishlash kabi ijtimoiy munosabatlar sohaga kirib keldi.

Mazkur asoslarga ko'ra, ko'plab mamlakatlarda hukumatlar raqamlashtirish va avtomatlashtirish natijasida yuzaga kelgan mehnat bozorining nihoyatda tez sur'atlarda o'zgarishiga munosib javob berish uchun kurashmoqda. Biroq, mazkur jarayonda xodimlarni ijtimoiy himoya qilish kabi bir qancha masalalar hal qilinishda transformatsiya jarayonlaridan ortda qolmoqda.

Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davri davlat xizmatlari, insonlarning turmush tarzi hamda mehnat munosabatlarini virtual va raqamli platformalarga o'tkazishni yanada tezlashtirdi [2].

Mehnat bozorini raqamlashtirish "Deliveroo" kabi talab bo'yicha logistika xizmatlaridan tortib, masofadan turib ishlaydigan yuqori malakali dasturiy ta'minot ishlab chiquvchilari, shuningdek ijtimoiy media kanallari va jonli efir xizmatlari orqali yaratilgan ma'lumotlar tranzaksiyalari orqali daromad oladigan shaxslar (yoki "influnserlar")gacha bo'lgan turli kasblarni o'z ichiga oladi. Raqamli xodimlarning aksariyati odatda yoshlar, shuningdek erkaklardir. Ular aksariyatining malaka darajalari o'rta darajada. Umuman olganda, raqamlashtirish iqtisodiyotning deyarli barcha asosiy tarmoqlariga kirib bordi va mehnat bozori tarkibini o'zgartirib yubordi [3].

Mehnat bozorining raqamlashuvi xodim va ish beruvchilar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, ish unumdorligi oshishi, yangi bozor imkoniyatlari, ish va shaxsiy hayot balansini ushlab, yuqori ish haqi kabilar, shular jumlasidandir. Shuningdek, ushbu transformatsiya jarayoni yangi ish o'rinlari yaratilishi, "yashil" ish o'rinlari hamda moslashuvchan ish rejimidagi ishlar soni ortishiga ham sabab bo'lmoqda. Biroq, mazkur jarayon ayrim muammolarni ham yuzaga keldirdi. Ushbu transformatsiya jarayonida yuzaga kelgan hamda hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar sirasiga onlayn ishlarda band bo'lgan xodimlarni ijtimoiy himoyasi, ish beruvchi tomonidan ularni nazorat qilish, xodimlar mehnatini muhofza qilish, ularning xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq masalalarni kiritishimiz mumkin.

Bundan tashqari, raqamlashtirish natijasida mehnat munosabatlarining noan'anaviy shakllari, masalan, "ixtiyoriy" mehnat munosabatlari ("Casual work") keng tarqalgan. "Ixtiyoriy" mehnat deyilganda, bunda xodimlar mehnat majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi. Biroq, ularga nisbatan ish beruvchi tomonidan hech qanday kafolatlar taqdim etilmaydi [4].

Iyun, 2025-Yil

Shuningdek, masofaviy ishlar ham keng tarqala boshladi va raqamli tadbirkorlik iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy taraqqiyotda, ayniqsa COVID-19 pandemiyasidan keyin yanada dolzarb ahamiyat kasb eta bordi. Demak, bunda raqamlashtirish ("e-formality") munosib mehnat va barqaror rivojlanishning yangi yechimiga aylandi. Biroq, mazkur sohadagi ko'plab sa'y-harakatlarga qaramasdan, mamlakatlar, tarmoqlar va xodimlar o'rtasida tengsizliklar kuchayib bormoqda.

Shu nuqtayi nazardan, raqamlashtirish mehnat bozorida yangi muammolarni keltirib chiqardi. Birinchidan, mehnat munosabatlariga asoslangan ijtimoiy himoya. Ikkinchidan, xodimlarning malakasi. Mehnat bozorlari ilg'or raqamli ko'nikmalarni talab qiladi, ammo ushbu sohada malakali xodimlarning yetishmasligi va ko'plab xodimlarning onlayn platformalardagi ishlarning malaka talablariga mos kelmaslik holatlari yuqori. Uchinchidan, ish o'rinlarining sifati.

Hozirda ko'pchilik xodimlar moslashuvchan ish sharoitlarini yaratganligi sababli raqamli ishlarni afzal ko'rishmoqda. Biroq, bunda ko'p holatlarda ish beruvchi xodimlar ish faoliyatini olib boradigan ish joyining sifatiga hech qanday kafolat bermaydi. Bu xodimlarning xavfsizligi bilan bog'liq muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Raqamlashtirish jamiyatdagi ijtimoiy guruhlariga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Erkaklar va ayollar o'rtasidagi virtual bandlik natijalari sezilarli darajada farq qiladi. Erkaklar bilan solishtirganda, ayollar kasblar va malaka darajalariga o'tishda ko'proq qiyinchiliklarga duch kelishadi. Umuman olganda, ayollar yuqori raqamli ko'nikmalar va texnik ko'nikmalarni talab qiladigan sektorlarda kamroq mehnat faoliyatini olib boradi. Biroq, raqamlashtirish ayrim ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari uchun ko'plab ijobiy imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda.

Masalan, yoshlar, qochoqlar va nogironlar kabi ijtimoiy guruhlar uchun ish imkoniyatlarini oshirib bormoqda [5]. Biroq, tartibga soluvchi aniq bir tizimning yo'qligi, infratuzilma, raqamli qurilmalar va ko'plab hududlarda internetga kirish imkoniyatlarining pastligi kabi muammolar ularning yaxshi daromad olish imkoniyatlarini pasaytirmoqda.

Xulosa qilib aytganda, aholi bandligini ta'minlash masalasi O'zbekistonda doimo davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan va hozirda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. So'nggi yillarda aholi bandligini oshirish, ijtimoiy zaif qatlamlarni qo'llab-quvvatlash, o'zini o'zi band qilish shakllarini rivojlantirish hamda yangi ish o'rinlari yaratish yo'lida qator islohotlar va chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bunda raqamlashtirish jarayonining ahamiyati va ta'siri tobora oshib bormoqda. Internet va raqamli texnologiyalar hayotning barcha jabhalariga, jumladan mehnat bozori va bandlik munosabatlariga ham chuqur kirib bordi.



Iyun, 2025-Yil

Masofaviy ish, onlayn platformalar orqali bandlik va raqamli tadbirkorlik kabi yangi bandlik shakllari vujudga keldi. Biroq raqamlashtirish natijasida mehnat munosabatlarining noan'anaviy shakllari kengaygan bo'lsada, bu jarayon ayrim ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqardi.

Xodimlarning ijtimoiy himoyasi, malaka mosligi, ish sharoitlari sifati va xavfsizligi kabi masalalar dolzarb bo'lib qoldi.

Raqamli bandlik imkoniyatlarni kengaytirayotgan bo'lsada, gender va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi tengsizlik, infratuzilmaning yetarli emasligi, raqamli savodxonlik darajasining pastligi kabi muammolar uni to'liq va adolatli rivojlantirishda jiddiy to'siqlarga aylanmoqda. Shu sababli, bandlik sohasidagi raqamlashtirish jarayonlarini samarali boshqarish, raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish, barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash va xodimlarni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish hozirda davlatning asosiy vazifalaridan biridir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdullayev M. O'zbekiston Respublikasida aholi bandligini ta'minlashdagi dolzarb masalalar//Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2021. №2. – B.114.
2. Handbook on Measuring Digital Platform Employment and Work. Availbale at: [https://www.oecd.org/en/publications/handbook-on-measuring-digital-platform-employment-and-work\\_0ddcac3b-en.html](https://www.oecd.org/en/publications/handbook-on-measuring-digital-platform-employment-and-work_0ddcac3b-en.html).
3. Lorraine Charles, Shuting Xia and Adam P.Coutts. Digitalization and Employment. International Labour Organization. 2022. ISBN 978-92-2-037252-4. – P.5.
4. J.A.Mingalyova. Distansionnaya zanyatost na onlayn internet-platformax: sovremennoye sostoyaniye i problem pravovogo regulirovaniya v Rossii// Ekonomika i biznes, 2021. №2. – C.107.
5. Noviye formi truda i platormennaya zanyatost v Sentralnoy Azii. [https://www.etf.europa.eu/sites/default/files/2024-09/Platform%20work%20in%20Central%20Asia%20RU\\_0.pdf](https://www.etf.europa.eu/sites/default/files/2024-09/Platform%20work%20in%20Central%20Asia%20RU_0.pdf)